

TURIZM GEOGRAFIYASINING KELIB CHIQISH VA RIVOJLANISH TARIXI

Jaksimuratov Azamat Bekmurat uli

Amidullaev Bibaris Turimbay uli

Turdimuratova Aynura Perdebay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti talabalari

Annotaciya: *Hozirgi davrga kelib turizm o'z rivojlanish cho'qqisiga erishti. Bu rivojlanish, asosan, turizm geografiasining paydo bo'lishiga zamin yarata oldi va turizm geografiasini uzoq tarixi davrida bir nechta mashaqqatli yo'llarni bosib o'tti. Bu mashaqqatli yo'l haqida ushbu ilmiy maqolada gap boradi.*

Kalit so'zlar: *turizm, geografiya, turizm geografiasini, sayohat, "Tomas Kuk" turistik firmasi, Gerodot, Ibn Battuta, Marko Polo, Buyuk Ipak yo'li.*

HISTORY OF THE ORIGIN AND DEVELOPMENT OF TOURISM GEOGRAPHY

Abstract: *Currently, tourism has reached the peak of development. This development has largely managed to lay the groundwork for the emergence of Tourism geography, and tourism geography has gone several arduous paths throughout its long history. This painstaking path will be mentioned in this scientific article.*

Key words: *tourism, geography, geography of tourism, travel, Tourist firm "Thomas Cook", Herodotus, Ibn Battuta, Marco Polo, Great Silk Road.*

Turizm – (fransuzsha “tour” – sayr, sayohat) – sayohat qilish (saparga shiqish), faol dam olish bo'lib hisoblanadi.

A.Soliev va M.Usmonovlar (2005) turizm tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: “aholining o'zi yashab turgan mintaqqa, hudud, o'lka yoki biror mamlakatning diqqatga sazovor joylarini ko'rish maqsadida uyushtirilgan rekreatsion faoliyat turi sayohat, ya'ni turizm hisoblanadi”.

Bugungi kunga kelib turizm sohasi jahon davlatlarida milliy iqtisodiyotning serdaromad sohalaridan biriga aylanganligi ko'pchilik ma'lum. Bugungi kunda jahon turizm bozori qariyb 9 trillion dollarni tashkil etmoqda. Jahondagi ish bilan band aholining har o'ninshisi ushbu sohada faoliyat yuritib kelmoqda. Shu sababli ham turizm sohasi eng ko'zga ko'ringan serdaromad sohalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Turizm dunyo yalpi ishki mahsulotining taxminan 5% ini tashkil etadi, rivojlangan davlatlarda esa deyarli 10% aholi turizm sohasi bilan band. Turizm sohasi COVID-19 pandemiyasi oqibatida eng katta zarar ko'rgan tarmoqlardan hisoblanadi. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda xalqaro turizm

72% ga yoki turizm xizmatlaridan tushumlar 1,1 trillion dollarga kamayib, 1990-yil darajasiga tushib qolgan.³¹

Turizm haqida soʻz ketganda birinchi navbatda bu soʻzning maʼnosini bilib olishimiz kerak boʻladi. Turizm – fransuzcha tour sayr, sayohat, sayyohlik- sayohat qilish, faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sogʻlomlashtirish, maʼrifiy, kasbiyamaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda haq toʻlanadigan faoliyat bilan band boʻlgan holda uzogʻi bilan bir yil muddatga joʻnab ketish tushuniladi.

Bugungi kunda zamonaviy turizm asoschisi deb tan olingan Baptist ruhoniysi – Tomas Kuk birinchilardan boʻlib sayohatchilarning ommaviy safar uyushtirishining mohiyati va foydaliligini angladi hamda 1843-yilda dastlabki temir yoʻl orqali tur tashkillashtirdi. Kuk 1851-yilda mamlakatning barcha burchagidan kelgan inglizlarning Parijdagi koʻrgazmada ishtirok etishini tashkillashtirdi. U koʻrgazmaga 165 ming kishini olib kelishga musharraf boʻldi. Koʻrgazma turlari katta foyda keltirganligi sababli, Kuk Angliyalik turistlarning 1865-yilda Parijga Butunjahon koʻrgazmasiga ommaviy ravishda tashrif buyurishining tashkilotchisi boʻldi. 1856-yildan boshlab Yevropa boʻylab turlar odatiy holga aylandi, Kukning turistlik agentligi va uning filiallari tuzildi. Bu turistik kompaniyaning ulkan muvaffaqiyatga erishganligini Kuk turistlarga taklif etgan katalogdan 8 mingdan ortiq mehmonxonalarining oʻrin olganligi ham tasdiqlaydi. 1870-yilga kelib “Tomas Kuk” turistik firmasi mijozlari soni 500 ming kishiga yetdi.³²

Sayohatlar ayrim shaxslar tomonidan alohida, yagona maqsad va qiziqishga ega boʻlgan shaxslar tomonidan ekspeditsiyalar, jumladan, harbiy ekspeditsiyalar tuzgan holda amalga oshirilib, ular tarkibiga yuzlab va xattoki minglab mutaxassislar, diplomatlar, migrantlar va koʻchib yuruvchilar ham kiradi. Dengiz, havo va boshqa transport vositalari ekipajlari oylab oʻz uylarida bulmaydilar, shu tariqa, ular uchun sayohat turmush tarzi, kunlik ish faoliyati boʻlib qolgan.

Eng qadimgi sayohatchilar qatoriga avvalo savdogarlar va ziyoratchilarni – (pilgrim) kiritishimiz mumkin. Yangi yer va resurslarga egalik qilish va savdo qilish istagi insoniyatni boshqa joylar, hududlar, mamlakatlar va xattoki qitʼalar tomon undagan. Mashhur grek tarixchisi Gerodot milloddan avvalgi V asrda barcha maʼlum va mashhur sayohat va ixtirolarni tasvirlab bergan. Fransuz tadqiqotchisi va geograf olimi Pifey (kelib chiqishi Massallik - hozirgi Marsel, Fransiya), milloddan avvalgi 320-yilda usha vaqtlarda aql bovar qilmagan tarzda butun Yevropa boʻylab sayohat qilgan, Britaniya orollarini aylanib oʻtib, Norvegiya va Islandiyagacha yetib borgani taxmin qilinadi. U «Okean haqida» (On the Ocean) deb nomlangan ajoyib asarni yozib

³¹ Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) maʼlumotlari

³² Iskenderov A.B., Uzaqbaev Q.K., Sharibaev A.m., Djanabaev I.B. “Turizm hám rekreaciyaliq geografiya” páninen oqırw-metodikalıq qollanba. Nókis- 2019, 128 bet.

qoldirgan bo'lib, unda ko'plab geografik yangiliklar va ixtirolar tasvirlab berilgan. [I.S.Tuxliev. Turizm Asoslari-20b.]

Buyuk arab olimi va sayohatchi Ibn Battuta (Abu Abdullox Muhammad ibn Abdullox al Lavati at-Tanji) Ibn Battutah (1304-1368) 21 yoshidan sayohat qilishni boshlagan va sharqning ko'plab davlatlarini (70 ming chaqirimdan ortiq) piyoda bosib o'tgan, Shimoliy Afrika mamlakatlari, Xitoy va Hindistonda bo'lgan. U o'zining mashhur «Rixle» deb nomlangan asarida ko'plab mamlakat va savdo yo'llarning geografik nomlarini, xalqlarning urf-odatlarini batafsil tasvirlab bergan. Italiyalik savdogar Marko Polo (1254-1324) 1271-1295-yillarda Xitoyga safar uyushtirib, u yerda 17 yil istiqomat qilgan va bu mamlakat haqidagi kamyob ma'lumotlarni to'plab, o'zining kitobida aks ettirgan.

Hozirgi qabul qilingan turizm tushunchalari XIX asrning oxirida shakllangan bo'lsada, XX asrga kelib u jadal sur'atlarda rivojlandi hamda texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, jamiyat munosabatlarining yuksalishi natijasida "XX asr fenornoni" nomini oldi. Bugungi kunda turizm - jahon miqyosidagi iqtisodiyotning juda kuchli tarmog'i bo'lib, uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 10% ni tashkil etadi hamda bu sohaga juda ko'p sonli xodimlar, asosiy vositalar va yirik kapital mablag'lar jalb qilingan.

Sayyohlik O'rta Osiyo o'lkasida qadim zamonlardan rivojlangan bo'lib, o'lkamizdagi ilk sayyohlik ko'rinishlari "Buyuk Ipak yo'li" ga borib taqaladi. Miloddan avvalgi II asrda paydo bo'lgan Buyuk Ipak yo'lining sayohatchilikning rivojlanishida ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. Bu yo'l faqat savdo yo'li bo'lib qolmay, ayni paytda dunyo xalqlari o'rtasida madaniy hamda davlatlararo aloqalar yo'li bo'lgan.

Sayohatlarning rivojlanishiga ziyoratchilar ham munosib hissa qo'shganlar. Turli din vakillari bo'lgan ziyoratchilar o'z dinlarini kengaytirish va muxaddas joylarga borib ziyorat qilish maqsadida uzoqdan-uzoq va mashaqqatli sayohatlarni amalga oshirganlar.

VII-VIII asrlarda arablar Movarounnahrni zabt etish yo'li bilan mahalliy xalqning urf-odati, dini va e'tiqodi, qadimdan rivojlanib kelayotgan madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkazib boshladi va asta-sekinlik bilan islom dini kirib kela boshladi. Mahalliy xalqning islom diniga o'tishi Markaziy Osiyoni Arab mamlakatlari Makka va Madina bilan bog'ladi. Islom dini farzlaridan biri hajga borish hisoblanib, Movarounnahrliklar o'z yurtlaridan chiqib Afg'oniston, Eron, Iroq, Suriya orqali, Saudiya Arabistonidagi Makka va Madina shahrida haj amalini bajarganlar. Bu yo'l mashaqqatli, og'ir, bir necha oy va yillarni o'z ichiga olgan bo'lsada, yildan-yilga hajga boruvchilarning soni ortib borgan.

O'zbekistonda turizmning dastlabki rivojlanish davri asosan o'tgan asrning birinchi choragiga to'g'ri keladi. 1925–1930 yillarda Markaziy Kasaba uyushmalari kengashi qoshida maxsus turistik jamiyat, ya'ni ishchi-dehqonlar turizm tashkilotini ta'sis etgan. Bu jamiyat asosan mehnatkashlarning turli shaharlarga sayohatini (ekskursiya) uyushtirish, o'quvchi-yoshlarni tarixiy obidalar bilan tanishtirish, o'lkani o'rganish kabi tadbirlar bilan shug'ullangan. Shuningdek, dam olish kunlari ommaviy

ravishda shahar atroflariga piyoda chiqish, chang'ida yurish, velosipedda sayr qilish kabi amaliy faoliyatlarni tashkil qilgan. Ularning asosiy maqsadi jismonan chiniqish, mehnat faoliyatini oshirish va mudofaa ishlariga tayyorgarlik ko'rishdan iborat edi.

Xulosa qilib aytganda, turizm industriyasi jahon xo'jaligining yetakchi tarmoqlarigan biri bo'lib, milliy iqtisodiyotga yuqori foyda keltiruvchi istiqbolli soha demakdir. Turizm har qanday mamlakat iqtisodiyotida zarurli ahamiyat kasb etadi, shu sababdan bu sohani rivojlandirishga har qanday davlat harakat qiladi. Bu sohani rivojlandirish imkoniyatlarini ko'zdan keshirmasdan oldin albatta, turizmning geografik tarixi bilan yetarlicha tanishib chiqish kerak deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Eshiniyazov B.A., Saliyev E.P., Egamberdiev F.B. Turizm tarawlariniń ilimiy tiykarlariniń úyreniliwi //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 4. – C. 821-825.

2. Egamberdiev F.,Eshiniyazov B.A “Turizmniń rawajlanıwındaǵı geografıyalıq kórsetkishler.” International conferences. Vol. 1. No.2022.

3. Egamberdiev F. B., Eshiniyazov B.A. Turizm tarawlariniń geografıyalıq tiykarları //international conferences. – 2022. – T. 1. – №. 21. – C. 243-246.

4. Iskenderov A.B., Eshiniyazov B.A. Turizmdi rawajlandırıwda turizm-rekreaciyalıq resurslardıń áhmiyeti //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 212-216.

5. Iskenderov A.B., Eshiniyazov B.A. Ózbekstan aymaǵında turizmniń jańa túrleriniń rawajlanıwı //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 217-220.

6. Iskenderov A.B., Saliev E.P., Eshiniyazov.B.A Geografiya sabaqlarında turizm tarawlariniń úyreniliwi//Aniq va tabiiy fanlarni masofaviy oqitishning dolzarb masalalari. – 2023.125-128.

7. Iskenderov A.B., Uzaqbaev Q.K., Sharibaev A.m., Djanabaev I.B. “Turizm hám rekreaciyalıq geografiya” páninen oqıw-metodikalıq qollanba. Nókis- 2019, 128 bet.

8. Tuxliyev I.S., Xayitboyev R., Ibodullayev N.E., Amriddinova R.S. Turizm asoslari: O'quv qo'llanma – S.: SamISI, 2010- 247 b.